

## XXI Asr Jamiyatida Insonning Ehtiyojlari Va Bunda Tarbiyaning Ahamiyati

*Abdullayev Komron Xamidullo o'g'li<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** XXI asr jamiyatida inson ehtiyojlari kun sayin ko'payib bormoqda. Ushbu ehtiyojlar nafaqat tabiiy, balki tarbiya va jamiyatga bog'liq bo'lgan psixologik omillarga bog'liq. Ehtiyoj inson faoliyatining asosi va shu bilan birgalikda ushbu faoliyatning mahsuli hamdir. Biroq bugungi kunda ehtiyojlarning ortishi inson psixikasiga hamda jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir o'tkazayotgani ko'plab savollarni tug'diradi. Ushbu savollarga javob topish maqsadida ehtiyojlarning tub mohiyati va sabablarini chuqur o'rganishimiz lozim. Natijalar esa jamiyat rivojining keyingi bosqichlarida islohot vazifasini bajaradi.

**Kalit so'zlar:** Evolyutsiya, Psixoanaliz, Freydning shaxs rivojlanishidagi taraqqiyot bosqichlari, shaxs va jamiyat, ehtiyojning kelib chiqishi, turlari, shakllanishi.

**Kirish:** Ehtiyoj nima? Uni qanday ifodalash mumkin? Psixologik manbalarga asoslanib fikr yuritganimizda, ehtiyoj – jonli mavjudot tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tariqasida ifodalanadi. Insonning faolligi boshqa jonzotlarnikidan tub darajada ham mohiyatan, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo'lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o'z ifodasini topadi. Inson faolligining ildizi instinktlar va reflekslardir. Lekin inson biologik shartlanganlikdan tashqari ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrlarida shakllangan ehtiyojlarga ham egadir. Insonga xos bo'lgan ehtiyojlarning mazmuni, shakli va qondirilish usuli inson taraqqiyoti davomida rivojlanib, o'zgarib va takomillashib boradi. Hozirgi zamon kishisining ehtiyojlari va ularning qondirilishi ajdodlarnikidan ham, avlodlarnikidan ham tubdan farqlanadi, lekin etnopsixologik xususiyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Inson o'zida ham individuallik, ham ijtimoiylikni aks ettirgani uchun ham uning ehtiyojlari shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarga egadir. Ushbu ikki xususiyatlardan kelib chiqib keyingi o'rinlarda ehtiyojni ikki guruhga – uning tub ildizlari bo'lmish tabiiy va madaniy guruhlarga bo'lib tahlil qilamiz, uning impuls va motivlarini ko'rib chiqamiz.

**Asosiy qism:** Tabiiy ehtiyojlarga tabiatimizda mavjud bo'lgan hamda yashab qolishimiz va o'z turimizni davom ettirishimiz uchun xizmat qiladigan ibtidoiy instinktlarni kiritamiz. Ushbu instinktlar omon qolish va avlod qoldirishdir. Evolyutsiya nuqta nazaridan har bir biologik tur muayyan sharoitda o'z turini saqlab qolishga intiladi. Buning dastlabki bosqichi o'zining omon qolishini ta'minlashdir. Omon qolish – oziqlanish va himoyalaniшни o'z ichiga oladi. Evolyutsiya davomida oziqlanish va himoyalaniş ham instinkt darajasida shakllangan. Oziqlanish biologik jihatdan yashash va tabiatdagi ma'lum bir funksiyani bajarish uchun energiya manbaini iste'mol qilish demak. Oziqlanish jarayonida turning bioaktivligi ta'minlanadi. Tabiatda barcha narsa cheklanganligini hisobga olsak, har bir tur o'z ozuqa manbasini tanlashi yoki boshqa manbalarga moslashishi lozim. Ushbu jarayonda bir tur boshqasi uchun ozuqa manbai bo'lsa, keyingi tur ham ushbu oziqlanish zanjirini davom ettiradi. Bu esa omon qolish uchun kurash – turlar aro va o'z turi ichida raqobatni shakllantiradi. Tiriklikni ta'minlash va ozuqa manbaiga aylanmaslik uchun har bir biojonzot himoyalanişga majburdir. Himoyalaniş esa har bir turda o'ziga xosdir. Turni saqlab qolishning ikkinchi bosqichi esa avlod qoldirishdir. Tabiiy tanlanishga ko'ra har bir jonzot omon qolishi mumkin bo'lgandan ko'ra ko'proq nasl qoldirishi kerak. Omon qolish va ko'payish uchun unumdor bo'lgan turlar ulushi keyingi avlodlarning ko'payishiga olib keladi. Ushbu jarayonda bir tur ichida muayyan kurash sodir bo'ladi. Ya'ni, sog'lom va bardoshli avlod qolishi uchun eng kuchli biomaterial egalari o'zaro kurashadilar.

<sup>1</sup> Profi University, Pedagogika va Psixologiya fakulteti, PP 01/22-guruh 1-bosqich talabasi Toshkent, O'zbekiston



G'olib esa keyingi avlodning davom etishini ta'minlaydi. Demak atrof-muhitga moslashgan holda sodir bo'ladigan omon qolish va avlod qoldirish instinkting tub mohiyati ayni turning davom etishini ta'minlasa, primatlarning taraqqiy etgan turi bo'lgan insonda ushbu instinktlar eng asosiy tabiiy ehtiyojdir. Inson ham biojonzot va u tabiatda o'z funksiyasini bajarishi lozim.

O'tmishda ayni bir paytda umumiy ajdodga ega va bir oilaga mansub, genetik jihatdan juda yaqin bo'lgan insonning ko'plab boshqa turlari bugungi inson – homo sapiens bilan yonma-yon hayot kechirgan. Ularni birlashtirib turgan narsa faqat genetik yaqinlikgina emas, balki tabiiy ehtiyojlar edi. Omon qolish o'tmishda murakkab bo'lgan. Inson va uning boshqa turlari oziqlanishi uchun doim ham imkoniyatlar mavjud bo'lmagan. Qulay va ozuqaga boy hududlarni topish, egalik qilish, yirtqich hayvonlar yoki boshqa turlar qurboniga aylanmaslik uchun jamoaga birlashish omon qolishning asosiy qonuni bo'lgan. Ayni jarayon jamoaviylik, ya'ni sotsiumga tamal toshini qo'ydi. Jamoaning o'z-qonun qoidalari esa madaniy taraqqiyotni shakllantirdi. Ushbu xodisa o'tmishdan to bugungacha amalda mavjuddir. Inson omon qolishi uchun moslashishga majbur edi. Aynan shu sabab ham unda idrok jarayoni rivojlandi. Toshidan ilk qurollar yasash, olovdan foydalanish inson sivilizatsiyasini keltirib chiqardi. Bu jarayonlar uning hayot tarzini keskin o'zgartirdi. U tabiatni o'ziga bo'ysindira boshladi. Ayni paytda inson va uning boshqa ko'rinishdagi turlari o'rtasida omon qolish uchun kurash boshlandi. Ozuqa manbalariga boy hududlar turlar o'rtasidagi ayovsiz urushga olib keldi va homo sapiens ushbu urushda g'olib bo'ldi. Omon qolish uchun vaziyatga moslashildi. Demak tabiiy ehtiyojlar qondirilishi jarayonida madaniy ehtiyojlar paydo bo'ldi.

Evolutsiyada turlarning davomiyligini ta'minlash uchun insonda jinsiy yaqinlik yoqimli tusga ega bo'ldi. Tug'ilgan barcha avlodlar ham yashab qolavermagan. Dastlab kasallik, ochlik, yovvoyi hayvonlar ularni o'ldirgan bo'lsa, keyinchalik bir tur ichidagi kurash bu jarayonga sabab bo'ldi. Inson o'z avlodini saqlab qolishi uchun yangi imkoniyatlarni qidira boshladi. Avlod qoldirish, avlodning tirik qolishi omon qolish instinkti bilan chambarchas bog'liq edi. Bu ham jamoaviylikka, madaniy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tabiatimizga ko'ra sog'lom avlod qolishi uchun erkak va ayollarning o'z vazifalari mavjud. Masalan, avlod davom etishi uchun erkaklarning tabiatdagi asosiy vazifasi iloji boricha ko'proq ayolni genetik material bilan ta'minlash bo'lsa, ayollarda esa ushbu genetik materiallar egasini filtratsiya qilishdir. Ya'ni kuchli va sog'lom erkakning genetik materiali unumli hisoblaniladi. Dastlab tabiiy ravishda, ibtidoiy jamoa shakllangandan keyin esa ma'lum qoidalar asosida bu jarayonlar rivojlanib bordi. Erkaklarning ayollarga o'chligi, ayollarni esa sevgi o'yinlari ostidagi asl sabab, asl mohiyat ham mana shunda. Inson taraqqiyoti davomida uning avlod qoldirish istagidan jinsiy mayllari ustunlikka erishdi. Mohiyatan jinsiy istaklar avlod qoldirish uchun vosita bo'lsada, jinsiy akt alohida ajralib chiqdi. Lazzatlanish istagi evolyutsiyadagi qonunlar va instinktlar energiyasidan foydalanib quvvat oldi. Keyinchalik madaniy hayot jinsiy instinktlarni ham ma'lum qonunlarga bo'ysindirib tartibga keltirdi. Inson taraqqiy etgan sari uning qolgan barcha ehtiyojlari yengillashdi. Biroq lazzatlanish ishtiyoqiga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bordi.

Endi esa buzilgan ehtiyojlarni tahlil qilamiz. Ehtiyojlar turlariga qarab yosh davrlariga uzviy bog'liqdir. Inson individ sifatida dunyoga kelar ekan, uning hayoti ob'ektiv borliqni sub'ekt sifatida idrok eta boshlaydi. Bundagi asosiy vosita oiladir. Oila a'zolari, asosan ota va onaning tarbiyadagi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Freyd psixoanaliziga ko'ra bola ob'ektiv olamdagi informatsiyalarni olti yoshigacha o'rganadi va ma'lum munosabatni shakllantiradi. Hayotining keyingi davrlarida esa ushbu ustanovkalar asosida faoliyat yuritadi. Freyd inson psixologik taraqqiyotining yosh davrlarini quyidagicha ta'riflaydi: 1) Oral bosqich – tug'ilishdan 1,5 yoshgacha; 2) Anal bosqich – 1,5 yoshdan 3 yoshgacha; 3) Fallik bosqich – 3 yoshdan 6 yoshgacha; 4) Latent bosqich – 6 yoshdan jinsiy balog'atgacha; 5) Genital bosqich – jinsiy balog'atdan hayotning oxirgi davrigacha. Freydning asosiy e'tibori biologik omillarga qaratilganligi sababli, barcha bosqichlar erogen zonalarga bog'langan va ma'lum bir vazifasini bajaradigan tananing sezgir joylari bilan chambarchas bog'liq. Biz ushbu bosqichlarning dastlabki uchtasiga e'tiborimizni qaratamiz va ulardan kelib chiqadigan ehtiyojlarni tahlil qilamiz.

Oral bosqichda bolaning ehtiyojlari oziqlanishga qaratiladi. Bola og'iz orqali lazzatlanadi. So'rish, chaynash, tishlash bolning asosiy faoliyatiga aylanadi. Bola dunyoni hamma narsani og'ziga solib



idrok etadi. Asosiy jarayon bolani sutdan va onani tanasidan ajratish. Rohatlanish uchun onaga to'liq qaram bo'lgan chaqaloq og'iz orqali instinktiv ehtiyojlarini qondiradi va tez o'sishi bilan ajralib turadi. Taraqqiyotning oral bosqichi lazzatlanish va potentsial umidsizlikning asosiy manbai ovqatlanish bilan bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Bolaning psixologiyasida bitta istak ustunlik qiladi - ovqatni o'zlashtirish. Ushbu bosqichning yetakchi erogen sohasi og'iz bo'shlig'i – ovqatlantirish, so'rish va ob'ektlarni birlamchi tekshirish uchun vositadir. Ikki-uch oylik yoshda bolada allaqachon zavq va norozilik ifodasi o'rtasidagi farqni kuzatishi mumkin. Lazzatlanish tajribasi emish orqali olinadi. Barmoqni so'rish ba'zan prenatal davrda sodir bo'ladi va bolalikda u asosiy instinkt bilan bog'liq bo'lgan tug'ma refleks sifatida qaraladi. Emizish va ovqatlantirish tajribalari ona va bola o'rtasidagi eng dastlabki o'zaro munosabatlar uchun kontekstni ta'minlaydi va psixikada yoqimli his-tuyg'ular haqida xotiralar shakllana boshlagandan so'ng, ular ushbu tajribalar atrofida tartibga solinadi. Yaxshi, yoqimli so'rish bilan chaqaloqning butun diqqat-e'tibori ushbu ritmik harakatga qaratiladi. Ikkinchi olti oyda, normal rivojlanishda, og'zaki tuyg'ularni qondirishning yangi shakllari paydo bo'ladi: chaynash va tishlash. Tish chiqarishni keltirib chiqaradigan og'riq va noqulaylik bolani ob'ektiv ravishda bog'liq bo'lmagan tishlash faoliyati bilan shug'ullanishga undaydi va tishlarni yoki tilni chaynash ham instinktiv qoniqishni ta'minlaydi. Bola atrofidagi dunyoni faolroq o'rganishni boshlashi bilanoq, u og'zidan fundamental tadqiqot vositasi sifatida foydalanadi. U zavq bilan og'ziga qo'lidagi hamma narsani soladi va qo'lga tushgan har bir narsani chaynashga urinish "oral zonasi" bilan bog'liq bo'lgan instinktiv zavqning dalilini ishonchli tarzda namoyish etadi. Xuddi shu davrda tajovuzkorlik kuzatiladigan xatti-harakatlarning ortib borayotgan farqlanishini kuzatish mumkin. Bundan libidinal va tajovuzkor harakatlarning farqlanishi haqida xulosa chiqariladi. Yetti oydan to'qqiz oygacha bo'lgan davrda emizish, oziqlanishdan cheklash va umidsizlikka javoban stimulg bog'liq, qisqa muddatli, vaziyatga xos ob'ektga qaratilgan g'azab paydo bo'ladi. O'z sube'ktiv idrokida bola tishlash, tepish, itarish va boshqa tajovuzkor harakatlardan foydalanadi, ular ko'pincha zavq va ob'ektga bo'lgan muhabbat bilan aralashadi. Misol uchun, bu onaning sochidan tortish yoki uni o'ynoqi tishlash bo'lishi mumkin. Bola onaga muhtoj, lekin u bilan qoniqarli aloqada bo'lish imkoniga ega bo'lmasa, bola ehtiyojlari qondirilgunga qadar yo'qotish va jalb qilish tuyg'usini bostirishni o'rganadi. Ya'ni, bola o'zini shunday tuta boshlaydiki, u onaga g'amxo'rlik qilishga ruxsat bermaydi, go'yo unga kerak emasdek. Go'yo u buni o'zi qila oladi. Onani yo'qotishdan qo'rquvidan shakllangan bolaning ifoda etilmagan tajovuzkorligi onaga emas, balki bolaning o'ziga qaratilgandir. Bola o'z ichida o'zini qo'llab-quvvatlamagan, sevmagan, ehtiyojini qondirmagan onani – sevmagan, sevib bo'lmaydigan ona obrazi sifatida yaratadi va keyin butun hayoti davomida ushbu travma bilan birga keladigan barcha atributlar bilan yashaydi. Bola ko'pincha yolg'iz qolib, e'tibor, mehr va muhabbatdan mahrum bo'lganligi sababli, u doimo kimgadir yoki biror narsaga yopishib olish, ushlab turish uchun xatti-harakatlar namunasini shakllantiradi. Boshqacha qilib aytganda, u odamlarga yoki narsalarga kuchli bog'lanishni, ma'lum holatlarga bog'liqlikni rivojlantiradi. Bola rivojlanishining ushbu bosqichidagi fiksatsiya erta sutdan ajratish, onadan erta ajralish, bolani boshqasiga tashlab qo'yish va hokazolar tufayli insonning oral xarakterini shakllantiradi yoki oral buzilishlar sodir bo'ladi. Bu esa keyinchalik shaxsning butun hayotiga ta'sir qiladi. Ushbu turdagi shaxsiyatga ega bo'lgan kattalar passivlik, qaramlik va ishonchsizlik (oral-passiv) yoki negativizm, boshqalardan foydalanish istagi va kinoya (oral-sadistik) bilan ajralib turadi. Freydning fikriga ko'ra oral bosqichda ba'zi shaxsiy xususiyatlar shakllanadi: to'ymaslik, ochko'zlik, talabchanlik, taklif qilingan hamma narsadan qoniqmaslik, optimist va pessimistlarga bo'linish. Oral xarakterning tuzilishini tashkil etuvchi travma – bu bolani ona tomonidan tark etilishi yoki rad etilishidir. Bola o'zini tashlab ketilgan va mehr-muhabbatdan mahrum his qiladi Unga jismoniy va hissiy aloqa, e'tibor yetishmaydi. Sevgi ob'ektlari bolaning asosiy sevgi ob'ekti – bu onadir. Bu e'tibor va sevgining kuchli ruhiy tanqisligini yuzaga keltiradi. Onaga hissiy bog'lanish keyinchalik jinsiy sheriklarga, turmush o'rtoqlarga, bolalarga o'tadi. Inson erta bolalik davrida qolib ketgani va o'zini kattalar kabi his qilmaganligi sababli odamlardan o'zi uchun tayanch yaratadi. Shunday qilib, ularga qaramlik paydo bo'ladi. Travma insonning ichida rivojlanib, uning dunyoqarashini shakllantiradi. Odamlar bilan munosabatlarida oral xarakterga ega bo'lgan shaxs bilim olishga, o'qishga, o'zini anglashga yordam berishga intiladi. Boshqalarga qaram bo'lishga moyil bo'ladi. U kelajak haqida kam tasavvurga ega bo'lganligi uchun boshqalarga g'amxo'rlik qilishga intiladi. Bu munosabatlardagi qarama-qarshilik va nizolarni keltirib chiqaradi. U doimo charchoq va



passivlikdan shikoyat qiladi. Bundan tashqari, u depressiyaga moyil. Ko‘pincha bunday odamlar bilan biz “hammasi yoki hech narsa”, “u meni umuman tushunmaydi”, “sen meni tushunmaysan”, “tushuntirishni istamayman” kabi qat’iy e’tiqodlar, kayfiyatlar, bayonotlar, xatti-harakatlarga duch kelamiz. Bular moslashuvchanlik va bag‘rikenglikning yo‘qligini ifodalaydi. Oral xarakterga ega bo‘lgan odam boshqa odamlarga juda qiziqadi, ular bilan osongina munosabatlar o‘rnatadi va ularning ehtiyojlariga moslashadi. Unga ishonish mumkin va u bilan turli mavzularda suhbatlashish oson. U juda yumshoq va mehribon odamdir. U his-tuyg‘ularini osongina ifoda etadi. U kutishni va sevishni biladi, lekin kutgan odami qaytib kelmasa, g‘azablanadi. Ichki iztiroblar o‘z hayotini barpo etish istagidan ustun keladi va buzg‘unchilik tendentsiyalari ustunlik qiladi. Og‘zaki xarakterga ega bo‘lgan shaxsning asosiy tamoyillari quyidagicha: “Menga berishmaydi”, “Men uchun hech narsa yo‘q”, “Men sizga berishga majbur qilaman”, “Menga hech narsa kerak emas”, “Hamma meni tark etishni istaydi”, “Men yolg‘izman / menga hech kim kerak emas”, “Men qo‘llab-quvvatlay olmayman / yordamga muhtoj emasman”, “Men qila olmayman / o‘zim qilaman”, “Men rad etilganman va ma‘qullanmaganman”, “Men uchun bu yetarli emas”, “Boshqalarda menga kerak bo‘lgan hamma narsa bor”, “Sen menga kerak emassan; Menga keraksan, lekin o‘zingdan so‘ray olmayman”, “Menga g‘amxo‘rlik qiling, menga panoh bering, menga yordam bering, men muhtojman”.

Tarqqiyotning anal bosqichida lazzatlanish anusga qaratiladi. Bola defekatsiyadan lazzatlanadi. Asosiy jarayon bolada hojat chiqarishni tartiblash va o‘z-o‘zini boshqarishni o‘rgatish. Anal bosqich ikki xil jarayonning to‘qnashuvi bilan bog‘liq - bir tomondan fiziologik va boshqa tomondan ijtimoiy-psixologik. Avval bola har qanday vaqtda defekatsiya va siyish harakatlarini birinchi marta paydo bo‘lganda amalga oshirishi mumkin edi. Biroq ayni paytda kattalar boladan bu xatti-harakatlarni nazorat qilishni va ularni ushlab turishni talab qiladi, bolani unitazga o‘rgatadi. Bu odat shakllanganda bolada kattalarni manipulyatsiya qilish uchun ongsiz moyillik paydo bo‘ladi. U itoat etmaslik uchun turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Unga gorshok taklif qilinadi va u rad etadi yoki defekatsiya istagi bo‘lsa ham hojatni ushlab turishni namoyish qilib, kerak bo‘lgandan ko‘ra ko‘proq vaqtni gorshokka sarflaydi. Bundan tashqari, u avvaliga hech qanday maxsus his-tuyg‘ularsiz gigienik amaliyotni bajarishni o‘rganadi. Keyin esa ulardan zavqlanadi va ularning bajarilishini faqat ma‘lum bir odamlar doirasiga ishonadi. Ko‘pincha bunday g‘amxo‘r shaxs onadir va bu gigiena protseduralari allaqachon sezuvchanlikka ega bo‘lgan jinsiy a‘zolar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ba‘zi mualliflar ushbu bosqichda onani bola uchun jozibali deb ta‘riflaydilar va defekatsiyani amalga oshirishda onaning ahamiyati to‘g‘ri bo‘lishni tavsiya qiladilar. Bunday g‘amxo‘rlik, shuningdek, bolani mustaqillikka imkon qadar erta ko‘niktirish bilan kechadi. Bu davrda bola o‘z defekatsiyasini o‘zining bir qismi sifatida baholashga moyil bo‘ladi. Bola defekatsiyasini katta yoshlilarga sovg‘a sifatida taqdim etadi. Buning uchun maqtovga sazovor bo‘ladi. Biroq, keyinchalik bu sovg‘a kattalar tomonidan “devalvatsiya” qilinadi. Bundan tashqari, agar defekatsiya yoki siyish harakatlari noto‘g‘ri vaqtda va noto‘g‘ri joyda amalga oshirilsa kattalarning xayrixoh munosabati qoralash, ba‘zan esa jazo bilan almashtiriladi. Shu bilan birga, bolada uyat hissi paydo bo‘ladi. Genital hududni yashirish va toza saqlash kerakligiga amal qiladi. Anal bosqichning asosiy tushunchasi anal buzilish va anal xarakterdir. Bu o‘zida ushlab turishga yo‘naltirilganlikdir. Anal xarakterga ega bo‘lgan odamlarda odatda ozodalik, tartibni sevish, ziqnalik darajasida tejamkorlik, o‘jarlik kabi xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Ular bolalikdan o‘zlarining tabiiy sekretsiyalarini qandaydir qimmatli boylik sifatida saqlashga moyil bo‘lib, balog‘at yoshida ham xuddi shunday bo‘ladi. O‘z motorli ko‘nikmalarini boshqarish qobiliyati, axlatni ushlab turish kattalarning xatti-harakatlariga qanday ta‘sir qilishini kuzatish bilan birgalikda, keyinchalik boshqalarning xatti-harakatlarini nazorat qilish, ularni manipulyatsiya qilish, ularning kuchidan zavqlanish va bunday bo‘lmaganda bezovtalanish tendentsiyasida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu anal xarakterga ega bo‘lgan odamlarga xos bo‘lgan tuyg‘uni keltirib chiqaradi. Ular hamma narsani o‘zlari qilishlari kerak, chunki buni boshqa hech kim qila olmaydi va bu holatlarda abadiy norozilik bilan birgalikda o‘ziga xoslik g‘oyalari shakllanadi. Boshqalarni barqaror tanqid qilish va ularga o‘rgatish istagi, nazorat va boshqarish istaklari shakllanadi. Ba‘zida odatiy ziqnalik o‘zgaradi va ehtiyotkorlik bilan to‘plangan, hisoblangan va oldindan ehtiyotkorlik bilan saqlangan jamg‘armalar behuda isrof qilinganda reaktiv munosabat hosil bo‘ladi.



Taraqiyotning uchinchi bosqichi – fallik bosqichda erogen zona - bu penis va klitor . Fallik bosqichda lazzat manbai jinsiy organlarga qaratiladi. Asosiy jarayon bola o‘zini ota-onasiga identifikatsiya qilishidir. Fallik bosqichda birinchi jinsiy ob‘ektni tanlash sodir bo‘ladi. Bu o‘g‘il bolalarda Edip, qizlarda Elektra kompleksning shakllanishiga olib keladi. Bola bu davrda jinslarni farqlashni boshlaydi. O‘z jinsiy a‘zolarini o‘rganadi, solishtiradi. Tug‘ilish jarayoniga qiziqadi. Ma‘lum darajada jinsiy qo‘zg‘alishlar yuzaga keladi. Onanizm va jinsiy aktga qiziqishlar paydo bo‘ladi. Edip kompleksi Fallik bosqichda rivojlanadi. Bu davrda bolaning erogen zonasi jinsiy a‘zosi hisoblanadi. Ota-onalar infantil libidinal energiya ob‘ektiga aylanadilar. Edip kompleksi bolaning qarama-qarshi jinsdagi ota-onasiga bo‘lgan jinsiy istagi va o‘zining jinsidagi ota-onaga nisbatan nafratini bildirish uchun ishlatiladi. Bu davrda bolada libido va Ego shakllanadi. Bola o‘z libidosini onasiga qaratadi. Rashk va hissiy raqobatni esa otasiga. Chunki otasi onasi bilan uxlaydi. Bola onasiga egalik qilish uchun otasini yo‘q qilishni istaydi. Lekin ona uchun kurashayotgan ikki erkakdan kuchlirog‘i otasi ekanligini anglaydi. U otasi tomonidan kastratsiya qilinishdan qo‘rqadi. Himoya mexanizmlari shakllanadi. Repressiya orqali xotiralar, g‘oyalar va hissiy impulslar ondan blokirovka qilinadi. Identifikatsiya orqali o‘g‘il yoki qiz bola o‘z jinsidagi ota-onaning shaxsiy xususiyatlarini o‘z Egosiga kiritish orqali moslashadi. Natijada kastratsiya tashvishi kamayadi. Chunki uning otaga o‘xshashligi uni onalik raqobatida otaning g‘azabidan himoya qiladi. Edip kompleksining hal etilishi bolaning Super Egosini rivojlantirishda juda muhimdir. Ona – o‘g‘il bola uchun ideal bo‘lib ko‘rinadi. Ona o‘g‘li tug‘ilishi bilan uning ehtiyojlarini qondirish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bola otasiga nisbatan dushmanlik tuyg‘ularini boshdan kechiradi va uni onalik muhabbati uchun urushda raqib sifatida qabul qiladi. Bola onasining otasi va o‘zi bilan munosabatlarini foxishalik deb baholashi ham mumkin. Bu kelajakda foxishalarga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi. Bu ijobiy Edip kompleksning hosil bo‘lishidir. Salbiy Edip kompleksi shakllangan taqdirda, bolada otasiga bo‘lgan muhabbat va onasiga nafrat paydo bo‘ladi. Salbiy shakllanish gomoseksualizm olib keladi. Bola otasini o‘rganib, uning xususiyatlarini o‘zlashtiradi. Ota bilan identifikatsiya qilish jarayoni rivojlanadi. O‘g‘il bola o‘zi uchun erkak bo‘lish ma‘nosini belgilaydigan qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar, munosabatlar va gender xulq-atvori modellarini egallaydi. Bundan tashqari, o‘g‘il otasi bilan identifikatsiya qilishda o‘zini onasi uchun otasi kabi sevgi ob‘ekti sifatida saqlab qolishi mumkin. Chunki u endi otasidagi onasi qadrlaydigan bir xil fazilatlarga ega. Edip kompleksini hal qilishda eng muhim jihat internalizatsiya va asosiy ijtimoiy axloqiy me‘yorlarni o‘zlashtirishdir. Identifikatsiya bolaning Super Egosini – vijdonning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Edip kompleksini muvaffaqiyatli hal qilish uchun bola ota-onasining yordamiga muhtoj. Agar bola tushunilmasa, stressni boshdan kechirsa (ko‘pincha bunday stress boshqa bolaning tug‘ilishi, ota-onalar o‘rtasidagi nizolar yoki bolani to‘liq bo‘lmagan oilada tarbiyalash), unda Edip kompleksining qiynchiliklari davom etadi. Uzoq vaqt, odamlar bilan munosabatlarda, oilaviy hayotda muammolarni keltirib chiqaradi yoki nevroz yoki boshqa ruhiy kasalliklarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Qizlarda ham dastlab onaga nisbatan kuchli muhabbat bo‘ladi. Ona qiz bola uchun ham tug‘ilishdan boshlab barcha ehtiyojlarni qondirish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan qiz o‘zida penisning yo‘qligi uchun onasini ayblay boshlaydi va onasiga nisbatan ochiq dushmanlik paydo bo‘ladi. Onasi uni jinsiy a‘zosisiz dunyoga keltirgani uchun uni qoralaydi. Yoki onasi qizining qandaydir noto‘g‘ri ish qilgani uchun jazo sifatida qabul qiladi. Keyinchalik qiz bola o‘z hayotida penis manbasini topishga harakat qilib, otasiga ega bo‘lishga intiladi. Chunki otasi kerakli organga ega. Qiz bola penisni olishga qodir emasligini bilib, penis o‘rnini bosuvchi boshqa jinsiy qoniqish manbalarini qidiradi. Jinsiy qoniqish klitorga qaratiladi. Qiz bola onani identifikatsiya qilish orqali otasiga egalik qilish imkoniyatiga erishadi. Otasiga o‘xshash erkakka turmushga chiqishni istaydi. Ba‘zi ayollar birinchi farzandi o‘g‘il bo‘lishini orzu qilishadi. Bu penisga egalik qilish yoki proyeksiya bo‘ladi. Ayol kishi o‘g‘il farzand yoki boshqa erkakni uch xil obrazda ko‘radi. Ota, er va o‘g‘il. Yoshi katta ayollarning yoshroq yigitlarga qiziqishi eng avvalo go‘daklik davridagi ota obraziga bog‘liq. Undan keyin esa yosh va baquvvat er yoki o‘g‘il timsolini ko‘radi. Edip va Elektra komplekslarining rivojlanish natijasi shundaki, bola o‘z jinsidagi ota-onadan axloqiy me‘yorlar tizimini qabul qiladi, unga o‘xshash bo‘lishga harakat qiladi. Juftini ham u kabi tanlaydi. Elektra kompleksi hissiy jihatdan kuchli. Shuning uchun potentsial, itoatkor, ishonchsiz shaxsga ega bo‘lgan ayol shakllanadi. Hal qilinmagan Elektra kompleksi qiz va onaning otaga psixoseksual egalik uchun raqobati qizning doimiy ravishda erkaklar ustidan hukmronlik qilishga intiladigan ayolga aylanishiga yordam beradigan fallik



bosqichli fiksatsiyaga olib kelishi mumkin. O'ziga yuqori baho beradigan jozibali ayol yoki o'ziga past baho beradigan itoatkor ayol paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda fallik bosqichda Egoning rivojlanishi va konfliktlarning internalizatsiyalashishi sodir bo'ladi. Internalizatsiya – "ichkilashtirish" tashqi real harakatlarni, ob'ektlarning xususiyatlarini, ijtimoiy shakllarni o'zlashtirish jarayoni. Jamiyatdagi me'yorlar, qadriyatlar, e'tiqodlar, qarashlar, g'oyalarni shaxs tomonidan o'zlashtirilishi orqali barqaror ichki shaxsiy fazilatlariga aylanishi. Erishilgan ijtimoiylik orqali shaxsiy qarorlarni qabul qilish. Super Ego shakllanishi jarayonida ichki ta'qiqlar yuzaga keladi. Ichki ta'qiqlar bir nechta bosqichdan keyin rivojlanadi: 1) Tashqi ta'qiq. Bu vaqtda bola ota-onasi tomonidan ta'qiqlangan xatti-harakatlardan faqat ta'qiqlovchi (ota-ona) bo'lgan taqdiridagina o'zini tiya oladi; 2) Bola ta'qiqqa bo'ysunishni o'rganishi. Bu bosqichda har bir ta'qiqqa amal qilish ota-ona tomonidan rag'batlantirilish va maqtanilish uchun qaratiladi; 3) Ta'qiqlarni kengaytirish. Bola minimal talab qilinadigan ta'qiqlar soniga dosh berishga o'rganganida, ta'qiqlar doirasini kengaytirish mumkin bo'ladi; 4) Ichki ta'qiqlash. Ushbu bosqich bolaning ta'qiqlarni nazorat qiluvchi shaxs bo'lmagan taqdirda ham ta'qiqlarga rioya qilishidir. Oxirgi bosqichda ziddiyat ichki istaklar va ichki ko'rsatmalar o'rtasida bo'ladi. Qarama-qarshi istaklar bilan bog'liq holda tashvish paydo bo'ladi va joziba uyat bilan almashtirilishi mumkin. Ona bilan munosabatlar tashvish bilan to'ldiriladi. Bola onasiga yoki otasiga bo'lgan ichki munosabatlarini tushunadi. Bu shaxslararo nizolar bilan bog'liq ko'plab fantaziyalar va qo'rquvlarni keltirib chiqaradi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi tajovuzkorlikni qanday boshqarishni o'rganishdir. Voyaga yetmagan Ego hali to'liq nazorat qilinmaydigan Id bilan to'qnash keladi. Fallik – kuchni, qudratni anglatadi. Ikkala jins vakillari ham bu kuchdan foydalanishga intiladi. Ayolda penis bo'lmagani uchun yetishmovchilikka duch keladi. U bundan noqulaylikni boshdan kechiradi va erkaklar bilan raqobatlashish orqali bu kamchilikni qoplashga harakat qiladi. Fallik ayol nafaqat erkakdan hokimiyatni tortib olishga, balki uni kastratsiya qilishga, kuchdan mahrum qilishga intiladi. Erini qadrsizlaydi va uni bolalari oldida yer qiladi. U o'zini muloyim ko'rsatgani bilan ayyor va moslashuvchan bo'ladi. Bunda onaning ayollarni qadrsizlashi va erkaklarni kuch-qudrat timsoli sifatida qabul qilishi ham sabab bo'ladi. Fallik ayol hamma narsada boshqalar bilan raqobatlashadi. Eng yaxshi, eng aqlli, eng go'zal bo'lishga intiladi. U mag'lubiyatga chiday olmaydi. Fallik ayol yashirincha va sahna ortida harakat qiladi. Xech qachon ochiqlik va halollik qilmaydi. U har doim o'z nomidan ish ko'radigan va o'zi vosita sifatida ko'rgan odamlarni manipulyatsiya qiladi. Narsisslar ham ushbu bosqichda shakllanadi. Narsiss o'z mohiyatini yashirmaydi. U hammaning ko'z o'ngida ulug'vorlik va mag'rurlikni his qilishni istaydi. U o'z maqsadlarini o'zi amalga oshiradi. Fallik va narsiss shaxslar xatti-harakati ortida kuchli kastratsiya va kuchni yo'qotish qo'rquvi yotadi. O'zidan mamnun bo'lgan narsisslar o'zlarining mavqeini namoyish qilsalar, fallik shaxslar boshqalarni ham kastratsiya qilishadi. Ikkala toifadagi shaxslar ham farzandlarini o'zlari kabi tarbiyalashadi. Fallik shaxs turmush o'rtog'idan passivlikni talab qiladi. Isterik shaxs ham ular qatori rivojlanadi. Isterik belgilarning paydo bo'lishi psixoseksual rivojlanishning Edip davridagi nizolarning uyg'onishi bilan bog'liq. Asosiy xavf – ota yoki onaga sevgi ob'ekti sifatida intilishdir. Ko'p uchraydigan isterik holat – bu oilada qiz ota-onasi uni o'g'il bo'lishini istashlarini sezsa, oilada o'g'il farzandga yaxshi munosabatda bo'linsa isteriya shakllanadi. Ko'pgina isterik ayollarning otalari jozibali bo'ladi. Shuningdek "matriarxat" tartibda o'sgan erkak jinsiga mansub obro'sizlangan o'g'il bolalar ham isterik yo'nalishda rivojlanadi. Shuningdek Don Juan kompleksi ham. Don Juan – otaga raqobat yoki ona muhabbatining yetishmasligi yoxud ona obrazini topa olmaslikdir. Rad etilish va tashlab ketilishdan kelib chiqqan travmalar sabab bo'lishi ham mumkin. Fallik bosqichda foxishalikka bo'lgan mayllar ham shakllanadi.

Tabiiyki har bir kishi o'tadigan taraqqiyot bosqichlari hammada bir xil ro'y bermaydi. Ota-onaning to'g'ri pozitsiyasi va patologik fiksatsiya nuqtalarining yo'qligi sharoitida normal rivojlanish sodir bo'ladi. Biroq ushbu bosqichlardagi buzilishlar bizning asosiy mavzu bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishiga ham turtki bo'ladi. Qaysi bosqichda buzilish bo'lsa, ana shu bosqichga bog'liq psixologik va psixofiziologik buzilgan ehtiyojlar paydo bo'ladi. Ushbu ehtiyojlar faoliyat va xulq-atvor bilan uzviy bog'liqdir. Buzilishdan shakllangan ehtiyojlar faollikning turi, shakli, harakatlantiruvchi kuchi, instinktlar, shartli reflekslar, faollikni keltirib chiqaruvchi yangi



qo'zg'ovchilar va unga muvofiq bo'lgan yangi harakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu bosqichlarda shakllangan ehtiyojlar – buzilgan ehtiyojlardir.

Individual istak va jamiyat talablaridan kelib chiqib ehtiyojlar rivojlanadi. Endi esa madaniy ehtiyojlarga yuzlanamiz. Dastlab ba'zi shaxslar yoki jamoalar madaniyatni yaratadilar, keyin esa madaniyat insonlarni yaratadi. Madaniy xatti-harakatlar, odatlarning insonda vujudga kelishi ijtimoiy tarbiyaning ta'sirida tabiiy ehtiyojlarni qondirishning vositasi, sharti sifatida gavdalanib shaxsiy va ijtimoiy hayotning tarkibiy qismiga aylanadi. Bunday xatti-harakatlar shaklini keltirib chiqaruvchi asosiy manba tub ma'nodagi ehtiyoj emas, balki uni qondirishning jamiyat taraqqiyoti talab qilgan qoidalari, usullari va madaniy ko'nikmalar hisoblanadi. Bugun insonlar sivilizatsiyalashgan davrda yashamoqdalar. Barcha istaklarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Biroq buning o'ziga yarasha talabi va majburiyatlari mavjud. Sotsium dastlab insonlar omon qolishi uchun yaratilgan bo'lsa, bugun esa ularning tartibini saqlashga xizmat qiladi. Kecha omon qolish uchun mehnat asosiy omil bo'lgan bo'lsa, bugun bilimlar yetakchidir. Inson komfort sari intilar ekan, unda yangi ehtiyojlar yuzaga keladi. Lekin hamma ham aqlli emas va komfort hayotda yashash uchun o'rta statistikadagi insonlar nima qilishadi va qanday muammolarga duch kelishadi? Masalan, kapitalistik jamiyatda odamlar omon qolish uchun bir-birini aldashga majbur. Hamma narsa sotiladi. Pul esa ilohiy darajaga ko'tariladi. Kapitalistik jamiyatda yashaydigan turli dinlarga mansub insonlar o'z Xudolariga e'tiqod qilishsada, anglamagan holda pulga e'tiqod qiladilar. Kommunistik jamiyatda esa inson o'z manfaatiga emas, tizim manfaatiga xizmat qiladi. Ikki tizimda ham insonlar quldir. Aslini olganda o'z ehtiyojlariga quldirlar. Tizimlar esa insonlarning ana shu ehtiyojlaridan foydalanishidir yoki yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradilar. Insonlar o'z ehtiyojlariga erishishlari uchun ham jismonan, ham ruhan qurbonlik qilishadi.

Tarbiyada psixologik buzilishga duch kelgan va travmalar bilan yashayotgan shaxs endi nafaqat o'zining tabiiy va buzilgan ehtiyojlarini, balki jamiyat talab qiladigan, boshqacha qilib aytganda, jamiyat a'zosi sifatida faoliyat yuritishi uchun shart bo'lgan, shaxsning ijtimoiy statusini belgilaydigan ehtiyojlar bilan ham yuzlashadi. Ushbu ehtiyojlar shaxsni sotsiumdagi o'rnini belgilaydi. Ehtiyojni qondira olishiga qarab ma'lum bir pog'onaga erishadi. Bu ijtimoiy qiymatini bildiradi. Jamiyatda moddiylikka ehtiyoj qancha yuqori bo'lsa – ma'naviy ehtiyojlar o'z ahamiyatini yo'qotib boradi. Masalan, o'zbek jamiyatida bor bo'lgan sun'iy ehtiyojlarni olaylik. To'y deyarli barcha millat va elatlarga xos bo'lgan udumdur. Biroq, kommunistik tizimdan kapitalistik tizimga o'tgan o'zbek jamiyatida so'nggi 30 yilda dabdabaga bo'lgan sun'iy ehtiyoj shakllandi. To'ylar endilikda ikki yoshning baxt kuni emas, balki, ijtimoiy mavqeni ifodalovchi bir tadbirga aylandi. Shu bilan birgalikda kelin va kuyovning yangicha majburiyatlari yuzaga keldi. Keraksiz an'analar shakllandi. Ushbu jarayon iqtisodiy tarafdin pulning havoga sovurilishi bo'lsa, psixologik tarafdin to'liqmaslik kompleksi va ijtimoiy hayotdagi buzilishdir. Ushbu buzilish va sun'iy marosimlar jamiyatda, jamiyatning har bir a'zorida kuchli ruhiy bosimni paydo qildi. Insonlarning fikr-u hayoli ijtimoiy mavqe uchun kurashdan iborat bo'lib qoldi. Bu jarayon omma effektidir. Omma effekti – ommaviy ongsizlikni ifodalaydi. Ongsiz holatda amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar ongli insonga xos bo'lmagan ehtiyojlarga qaramlikni keltirib chiqardi. Bu esa aks ta'sirdir. Jamiyat taraqqiyoti uchun aks ta'sir. Kapitalistik tizimda sun'iy ehtiyojlar juda ko'p. Dabdaba ortidan quvayotgan jamiyat faqatgina bozor uchun manfaat keltiradilar. Kapitalistlar esa boyishadi. Bu iqtisodiyot uchun foyda keltirsada jamiyatning ertangi kundagi madaniyatiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Ehtijoni qondirish uchun shaxs ongli va ongsiz holatda o'ziga manfaat keltiradigan vositani qidiradi. Ushbu vosita esa avvalo shaxsning o'ziga va jamiyatga zarar keltirmasligi kerak. Bu minglab sun'iy ehtiyojlardan biri xolos. Har qanday jamiyatda yechimini kutayotgan son-sanoqsiz muammolar mavjud. Shunga ahamiyat qaratishimiz kerakki – moddiy va ma'naviy ehtiyojlar stabillashsagina jamiyatda sog'lom muhit ilgari suradi. Ehtiyojlar stabillashishi uchun esa oilada sog'lom tarbiya berilishi lozim. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi uning og'ir yoki yengil ko'chishi shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, shu boisdan ularni qondirish maqsadga muvofiq hamda oqilona mezonlarga suyanib amalga oshirilishi kerak.

**Natija:** XXI asrda yechim tariqasida yaqin kelajakda bizni nimalar kutayotgani haqida fikrlashimiz kerak. Har birimiz o'zimizga quyidagi savollarni berishimiz lozim: Oilada sog'lom muhitni



shakllantirish, sog‘lom psixologik tarbiyani yaratish uchun nimalar qilishimiz kerak? Jamiyatda mavjud bo‘lgan madaniyat mahsullari hayotimizda qanchalik ahamiyatga ega? Ehtiyojlarimizning qay biri biz uchun eng birlamchi? Buzilgan va sun‘iy ehtiyojlarni qanday farqlashimiz lozim? Ehtiyojga nisbatan qaramligimizni qanday barataraf etish mumkin? Ehtiyojlarni ongli qondirish uchun nima qilmoq darkor?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E. G‘oziyev: “Umumiy psixologiya”
2. Ch. Darvin: “Turlarning kelib chiqishi”
3. Z. Freyd: “Psixoanalizga kirish”, “Totem va Tabu”

